
«BIZ SIZ UCHUN ISHDA QOLDIK, SIZ BIZ UCHUN UYDA QOLING»!

Mamlakatimizdagi epidemiologik vaziyat, koronavirus pandemiyasi tarqalishi barchamizni hamjihat va birdamlikka chaqirdi. Eng muhimi, salomatligimizga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi.

Ayni kunlarda “Hududgaz Farg’ona” MCHJning Qo’shtepa tumani filiali xodimlari xavfsizlik va karantin qoidalariga to’liq rioya etgan holda faoliyat ko’rsatmoqda.

Shuningdek, taqdim qilinadigan transport vositasining ko’chalarda xavfsiz harakatlanishi uchun tegishli uskunalar va ehtiyot qismlar, suyultirilgan gaz ballonlarini tashish tizimli ravishda dezinfeksiyalash bosqichidan o’tadi. Har kuni ertalab hudud, bino, xodimlarning ish joyi va hatto gaz ballonlari ham sanitariya tekshiruvidan o’tkaziladi. Bir so’z bilan aytganda, xodimlar va iste'molchilar xavfsizligi uchun barcha choralar ko’rilgan.





Qo'shtepa tumanida 38940 ta xonadonga suyultirilgan gaz yetkazib beriladi. Karantin davrida hech bir oila yoqilg'isiz qolmaydi va buning uchun filial tomonidan barcha resurslar safarbar etilgan hamda barcha choralar ko'rilgan. Iste'molchilarga gaz ballonlarini yetkazib berish tasdiqlangan reja-jadval asosida, to'liq hajmda amalga oshirilmoqda.

Fursatdan foydalanib, "Hududgaz Farg'ona" MCHJning Qo'shtepa tumani filiali mutaxassisleri barcha fuqarolarimizni uyda qolib, o'zlari va yaqinlarini ehtiyot qilishlarini so'raydi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-10 11:51:18